



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

**BO'LG'USI VETERINAR MUTAXASSISLARINING TADQIQOTCHILIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
kafedra mudiri, dotsent (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak veterinariya mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, uning veterinariya ta'limidagi o'rni va mazmuni yoritiladi. Tadqiqotchilik kompetensiyasining tarkibiy komponentlari, uni shakllantirish omillari hamda rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslab beriladi. Shuningdek, ushbu kompetensiyani baholash mezonlari va indikatorlari aniqlashtirilib, ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: veterinariya ta'limi, tadqiqotchilik kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik muammo, innovatsion texnologiyalar, ilmiy-tadqiqot faoliyati, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim sifati.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ
КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ВЕТЕРИНАРНЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ КАК
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Нарзиева Наргиза Норкузиевна

Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, заведующая кафедрой, доцент (PhD)

Аннотация

В статье научно-теоретически анализируется совершенствование механизмов развития исследовательских компетенций будущих ветеринарных специалистов как педагогическая проблема. Раскрывается значение компетентностного подхода в современной системе высшего образования, его роль и содержание в ветеринарном образовании. Обосновываются структурные компоненты исследовательской компетенции, факторы её формирования и инновационные педагогические технологии, способствующие её развитию. Также уточняются критерии и показатели оценки данной компетенции и разрабатываются научно-методические рекомендации по совершенствованию образовательного процесса.

Ключевые слова: ветеринарное образование, исследовательская компетенция, компетентностный подход, педагогическая проблема, инновационные технологии, научно-исследовательская деятельность, профессиональная подготовка, качество образования.

**IMPROVING THE MECHANISMS FOR DEVELOPING RESEARCH
COMPETENCIES OF FUTURE VETERINARY SPECIALISTS AS A PEDAGOGICAL
PROBLEM**

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology, Head of Department, Associate Professor (PhD)

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of improving the mechanisms

for developing research competencies of future veterinary specialists as a pedagogical problem. It highlights the importance of the competency-based approach in modern higher education and its role in veterinary education. The study substantiates the structural components of research competence, the factors influencing its formation, and innovative pedagogical technologies that support its development. It also defines evaluation criteria and indicators for assessing this competence and offers methodological recommendations for improving the educational process.

Keywords: veterinary education, research competence, competency-based approach, pedagogical problem, innovative technologies, research activity, professional training, quality of education.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yangi Renessans g‘oyasi doirasida ilgari surayotgan ta‘lim islohotlari, ayniqsa, oliy ta‘lim tizimi uchun muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu davr – yangi fikrlash, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan taraqqiyot bosqichi sifatida talqin qilinmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib, zamonaviy oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, veterinariya ta‘lim yo‘nalishlarida ham bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat nazariy va amaliy jihatdan, balki ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash muhim vazifaga aylangan. Bo‘lajak veterinariya mutaxassisining tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu uning ilmiy asosda muammoni aniqlashi, tahlil qilishi, eksperimentlar o‘tkazishi, ilmiy xulosa chiqarishi va kasbiy faoliyatga innovatsion yondashish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya kompleks, ko‘p qirrali, shaxsiy va kasbiy rivojlanishga bevosita bog‘liq bo‘lib, uning shakllanishi zamonaviy ta‘lim konsepsiyalariga asoslanadi.

Zamonaviy oliy ta‘lim tizimida bakalavrlar tayyorlash jarayoniga qator innovatsion yondashuvlar joriy etilayotganiga qaramasdan, amaliyotda ko‘p hollarda an‘anaviy bilimga yo‘naltirilgan model ustuvor bo‘lib qolmoqda. Mazkur yondashuv asosan tayyor nazariy bilimlar tizimini o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lib, bunda talabaning kasbiy tayyorgarligi bilim, ko‘nikma va malakalar orqali baholanadi [1]. Pedagogik adabiyotlarda tadqiqotchilik kompetensiyasi bilim, motivatsiya, amaliy harakat va refleksiyaga tayyorlik kabi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi. Bu esa uni shakllantirishda kompetensiyaviy yondashuvning dolzarbligini yanada oshiradi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy oliy ta‘lim tizimida an‘anaviy bilimga yo‘naltirilgan model mehnat bozori talablarini to‘liq qondirish imkoniyatiga ega emas. Xususan, kompetensiyaviy yondashuvga oid nazariy tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, bugungi kunda bo‘lajak mutaxassisdan faqat fundamental nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatga tayyorlik, muammoli vaziyatlarda mustaqil va asosli qaror qabul qilish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish hamda uzluksiz o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalari ham talab etiladi [2].

Tadqiqotchilar fikricha, global mehnat bozori sharoitida mutaxassisning raqobatbardoshligi uning kasbiy kompetensiyalari, innovatsion fikrlashi va ilmiy-tadqiqot olib borish salohiyati bilan belgilanadi [3]. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaga asoslangan ta‘lim modeli nazariya va amaliyot integratsiyasini ta‘minlash orqali bo‘lajak mutaxassisning kasbiy yetukligini shakllantirishning muhim pedagogik omili sifatida e‘tirof etiladi [4]. Zamonaviy ta‘lim konsepsiyalarida aynan ushbu yondashuv mehnat bozori va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos, mustaqil fikrlovchi hamda kreativ mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi qayd etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta‘limning metodologik asosi bo‘lib, talabaning mustaqil fikrlashi, kasbiy muammoni hal qilishga tayyorligi va amaliy faoliyatda samarali ishtirok etishini ta‘minlaydi. Xususan, veterinariya ta‘limida bu yondashuv talabalarning kasbiy izlanishlarga yo‘naltirilganligini kuchaytiradi, ilmiy-tadqiqotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va kasbiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish uchun ta‘lim jarayonida innovatsion o‘quv muhiti, zamonaviy laboratoriyalar, raqamli texnologiyalar, mustaqil va jamoaviy tadqiqot ishlari, professor-o‘qituvchilar tomonidan ilmiy mentorlik kabi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi. Bunday sharoitlar orqali talabalar o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, ilmiy muammolarni hal qilish, loyiha yaratish

va tajriba o'tkazish orqali o'z salohiyatini ochish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilik kompetensiyasini baholash uchun uning rivojlanish darajalarini aniqlovchi aniq mezon va indikatorlarga tayanish lozim: bilim darajasi, tahliliy salohiyat, innovatsion fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy natijaning foydaliligi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida har bir talabanning individual kompetensiya xaritasi ishlab chiqilishi, shunga asoslangan o'quv va ilmiy ishlar tashkil etilishi mumkin.

V.V. Laptevning ilmiy qarashlariga ko'ra, zamonaviy insondan turli tanlov vaziyatlarida tezkor va ongli harakat qilish, hayotiy hamda kasbiy maqsadlarni belgilash va ularga erishish qobiliyati talab etiladi. Mazkur yondashuv ta'limni kompetentlik paradigmasi asosida tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi [5].

Yangi Renessans davrida bo'lajak veterinariya mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish masalasi nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatning ilmiy, iqtisodiy va ekologik xavfsizligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan strategik muhim yo'nalishdir. Zamonaviy ta'lim jarayonida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishi nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishni, balki talabanning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydigan amaliy, innovatsion va ilmiy izlanishlarga asoslangan yondashuvni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak veterinariya mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish – zamonaviy pedagogika fanida dolzarb ilmiy-metodik muammo sifatida e'tirof etiladi.

Veterinariya ta'limida kompetensiyaviy yondashuvning asosiy mohiyati bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlari, amaliy-klinik tajribasi, tadqiqotchilik ko'nikmalari, kasbiy qadriyatlari hamda shaxsiy sifatlarini uzviy integratsiya qilish orqali uning professional faoliyatga tayyorligini ta'minlashdan iboratdir. Ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, veterinariya sohasida kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli faqat kasbiy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki klinik va laboratoriya sharoitida muammolarni aniqlash, ilmiy gipoteza ilgari surish, diagnostik tahlil o'tkazish, natijalarni interpretatsiya qilish hamda amaliy qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Ayniqsa, zamonaviy veterinariya ta'limida tadqiqotchilik kompetensiyasi bo'lajak mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki veterinariya faoliyati bugungi kunda nafaqat davolash-amaliyot, balki epizootologik monitoring, laboratoriya diagnostikasi, bioxavfsizlik, "One Health" tamoyillari asosida ilmiy izlanishlar olib borishni ham talab etadi. Shu bois kompetensiyaviy yondashuv ta'lim sifati bilan ilmiy axborotlar hajmining keskin ortishi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishning samarali pedagogik vositasi sifatida namoyon bo'ladi [3].

Mazkur yondashuv talabanning tayyor ma'lumotlarni reproduktiv o'zlashtirishidan ko'ra, ilmiy-tadqiqot metodologiyasini egallashi, mustaqil izlanish olib borishi, eksperimental natijalarni tahlil qilishi va amaliyotga tatbiq eta olishi bilan tavsiflanadi. Natijada bo'lajak veterinariya mutaxassisida ilmiy tafakkur, kasbiy moslashuvchanlik, innovatsion yondashuv va raqobatbardoshlik sifatleri shakllanadi [4]. V.A. Demin kompetentlikni shaxsning o'z kompetensiyalarini o'zgaruvchan ijtimoiy va kasbiy sharoitlarda konstruktiv ravishda qo'llay olish darajasi sifatida talqin etadi [6]. Yu.G. Tatur esa kompetentlikni bilim, ko'nikma, tajriba va individual sifatlarining integrallashgan ko'rinishi sifatida izohlaydi [7].

Mahalliy olimlardan N.A. Muslimov kompetentlikni talabanning kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi hamda ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati bilan bog'laydi [8].

Mazkur ilmiy yondashuvlar bo'lajak veterinar mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki veterinariya ta'limida nazariy bilimlarni amaliy diagnostika, laboratoriya tadqiqotlari va klinik kuzatuvlar bilan integratsiyalash kompetentli yondashuvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu talabanning ilmiy dunyoqarashi, tahliliy fikrlash

qobiliyati, muammoni aniqlash, ilmiy gipoteza ilgari surish, metodologik yondashuvlar asosida izlanish olib borish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini o'z ichiga olgan kompleks kompetensiyadir. Bu kompetensiya tarkibida kognitiv (bilimga oid), metodologik, kommunikativ, axloqiy-ijtimoiy, texnologik va ijodiy reflektiv komponentlar ajratiladi. Har bir komponent bo'lajak veterinariya mutaxassisining kasbiy shakllanishida muhim bosqichlarni belgilaydi. Misol uchun, kognitiv komponent – ilmiy asoslarni egallashni, metodologik komponent – ilmiy tadqiqot metodlarini to'g'ri tanlash va qo'llashni, kommunikativ komponent esa ilmiy axborotni izlash, tahlil qilish, taqdim etish hamda jamoaviy loyihalarda ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mazkur kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarning mavjudligi yoki yetishmasligi ta'lim tizimidagi asosiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo o'quv dasturlarining ilmiy izlanishlarga yo'naltirilganlik darajasi pastligi, ilmiy rahbarlik tizimining noaniqligi, amaliy-tajriba bazasining yetarli emasligi, shuningdek, metodik ta'minot va moddiy-texnik resurslarning cheklanganligi kabi bir qator omillar bilan bog'liqdir. Shu boisdan, bo'lajak veterinariya mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir pedagogik tizim va didaktik modellarni takomillashtirish, ularni innovatsion texnologiyalar asosida qayta ko'rib chiqish zarurati tug'iladi. Bu jarayonda muammo yuzasidan o'qitish (problem-based learning), loyiha asosida o'qitish (project-based learning), tadqiqot faoliyatiga integratsiyalashgan yondashuv, ilmiy-ijodiy seminarlar, mini-tadqiqotlar, kuzatuvlar, eksperimentlar, statistik tahlil, model yaratish va ilmiy ma'lumotlar bilan ishlash kabi zamonaviy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilik kompetensiyasini baholashda esa, diagnostik metodlar, kompetensiya indikatorlari, reyting baholash tizimlari, portfoliolar, ilmiy loyiha himoyasi va reflektiv tahlillar orqali talabning individual va jamoaviy o'sishini aniqlash mumkin. Muhimi, veterinariya ta'limi sohasida bu kompetensiyalarni shakllantirish, kelajak mutaxassislarining epizootologik tahlil, differensial diagnostika, vaktsina ishlab chiqish, biotexnologik tadqiqotlar va profilaktik choratadbirlar bo'yicha mustaqil ishlash salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, ushbu masala nafaqat o'quv jarayonining takomillashuvi, balki butun veterinariya sohasining ilmiy rivojlanishi va xalqaro raqobatbardoshlik darajasining oshishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, bo'lajak veterinariya mutaxassislarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida tizimli, ilmiy-nazariy asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan yondashuvni talab qiladi va bugungi kunda ta'limdagi muhim strategik ustuvorliklardan biri sifatida qaralmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi. Dissertatsiya rasmiylashtirish qoidalari.
2. Kulik A. A., Lazareva P. V., Ippolitova N. V., Egorova A. E., Nedorezova O. Yu. Competency-based approach and competencies in higher education: a theoretical review // *Propósitos y Representaciones*. — 2020. — Vol. 8, SPE(2). — e645.
3. Makulova A., Alimzhanova G., Bekturganova Z., et al. Theory and practice of competency-based approach in education // *International Education Studies*. — 2015. — Vol. 8, P. 183–192.
4. *Competency-Based Education: The Future of Higher Education*. — 2022. — DOI: 10.4018/978-1-6684-3809-1.ch010.
5. Лаптев В. В. Компетентностный подход в современном образовании. — М.: Педагогика, 2018. — 256 с.
6. Демин В. А. Профессиональная компетентность специалистов в условиях модернизации образования // *Педагогика*. — 2019. — № 4. — С. 45–52.
7. Татур Ю. Г. Компетентность в структуре профессиональной подготовки. — М.: Высшая школа, 2017. — 198 с.
8. Muslimov N. A. Kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari. — Toshkent: Fan, 2020. — 214 b.